



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
XORAZM VILOYAT KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA
BANDLIK BOSH BOSHQARMASI
BUYRUQ**

“01” 06 2023-yil

№ 410-son

Urganch shahri

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlar orasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 91-sonli buyrug‘ining ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlar orasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini yanada kuchaytirish, amalga oshirilayotgan ishlar maqsadlilik va samaradorligini yanada oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning har qanday ko‘rinishlarini oldini olish va O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi **“O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlar orasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 91-sonli buyrug‘ining ijrosini ta’minlash maqsadida**

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi **“O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlar orasida**

korruptsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 91-sonli buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlikning mazkur buyrug'i bilan:

- korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati **1-ilovaga**;
- xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom **2-ilovaga**;

- manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlanganligi ijro va amalda foydalanish uchun qabul qilinsin.

3. Bosh boshqarma markaziy apparati tuzilmalari, tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari doimiy ravishda tizimda korruptsiyaviy xavf-xatarlar yuzaga kelishini oldini olish, korruption xatarlarni baholash va bartaraf etish maqsadida, barcha turdagi buyruqlar, shartnomalar hamda shartnomaviy tusdagi boshqa hujjatlar loyihalari majburiy tartibda Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimiga mas'ul xodim bilan kelishilishi ta'minlansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-maydagi 91-sonli buyrug'i asosan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimlari vazirlik bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanishi, hamda lavozimidan ozod qilinishi belgilab qo'yilganligi inobatga olinsin.

5. Bosh boshqarmaning Komplaens nazorat bosh mutaxassisi (Z.Xodjaev) Vazirlikni buyrug'i asosida tasdiqlangan;

- korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatiga,
- xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizomga,
- manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizomga bosh boshqarma markaziy apparati, tizimdagi boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlar tomonidan mazkur tasdiqlangan hujjatlar asosida ishlarni tashkil etilishi yuzasidan qat'iy nazorat o'rnatish va har chorak yakuni bilan qilingan ishlar yuzasidan raxbariyatga va vazirlikga axborot kiritish.

6. Mazkur buyruqni ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Bosh boshqarma boshlig'i v.b



Sh. Berdiyev